



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG‘I**

11 iyun 2026 yil. **168-son** **Samarqand shahri**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan
va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 5-iyundagi
231-sonli buyrug‘i to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 5-iyundagi 231-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi faoliyati to‘g‘risidagi nizom” 1-ilovaga;

“Oliy ta’lim muassasasi Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizom” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlarining lavozim yo‘riqnomalarini “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi faoliyati to‘g‘risidagi nizom” talablari asosida qayta ishlab chiqib, tasdiqlashga taqdim etish belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshligi (F.Turayev):

Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limlari nizomlari va ushbu bo‘limlar xodimlarining lavozim yo‘riqnomalarini “Oliy ta’lim muassasasi Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizom” talablari asosida qayta ishlab chiqib, tasdiqlash belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining “Oliy ta’lim tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyahasini amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida” 2021-yil 28-iyundagi 281-son buyrug‘i 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasasining Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini

boshqarish bo'limi to'g'risidagi namunaviy nizom" hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalar nizomlari hamda xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash to'g'risida" 2025-yil 10-iyuldagi 260-son buyrug'i 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Korrupsiyaga qarshi kurashi bo'limi to'g'risida nizom" o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblangani inobatga olinsin.

5. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Rektor



X.Yunusov.

PCE2513

PCE2513

PCE2513

PCE2513

PCE2513

PCE2513

2513